

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

*Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy
pedagogika universiteti “Maktabgacha
ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada malakaviy o‘quv amaliyot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati, amaliyot jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalarini, malakaviy o‘quv amaliyot jarayonida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati va ilmiy nazariyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetensiya, situatsion o‘qitish texnologiyasi, texnologiya, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv, individual metodik jarayon.

Bugungi kunga kelib bo‘lajak pedagoglarning ta’lim tizimi malakaviy o‘quv amaliyotida jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb muammo sifatida ustivorlik qilmoqda. Mazkur tadqiqotning asosini bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ilmiylik, amaliy yo‘naltirilganlik, ko‘rgazmalilik, shaxsga yo‘naltirilganlik, nazorat va baholashning uzliksizlik, faollik va ijodiy mustaqillik tamoyillariga asoslanganlik tashkil etadi.

Malakaviy o‘quv amaliyoti jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish faoliyatining ilmiy yo‘nalishlarini belgilash va uni amalga oshirish uchun bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetentli qilib tayyorlash bizga tadqiqotning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganishga va tahlil qilishga bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasining mazmun mohiyatini aniqlashga imkon berdi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligining psixologik omillari quyidagilardir: harakatlarning maqsadga muvofiqligi, ularning yuqori motivatsion xarakteri; aqliy faoliyat; tegishli psixologik

munosabat va irodali fazilatlar. Malakali tarbiyachilarni kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish samaradorligining ko'rsatkichi fikrlashning ijodiy tarkibiy qismlarini ishlab chiqish sanaladi.

Kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi faqatgina bilim berish bilan emas, balki o'quv-amaliy jarayonida maqsadga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik sharoitlarni yaratish orqali amalga oshadi. Bu shart-sharoitlar — bo'lajak tarbiyachining faolligi, mustaqilligi, reflektivlik darajasi, tashabbus ko'rsatishi va real kasbiy holatlarda o'zini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishi bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, malakaviy o'quv amaliyoti faqat "sinov" emas, balki tarbiyachilik kasbining mohiyatini chuqur anglash bosqichi sifatida ko'rilmog'i lozim

Malakaviy amaliyot uzluksiz ta'lim tizimining oliy ta'lim bosqichida kadr tayyorlashning asosiy mashg'ulot turi hisoblanadi. Malakaviy amaliyotda, xususan, pedagogik amaliyot davrida talaba olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikma va malakalarini egallaydi. Bir og'iz so'z bilan aytganda kasbiy kompetentligi oshadi va pedagogika kasbini mashaqqatli hamda sharaflil kasb ekanligini his qiladi.

Malakali tarbiyachilarni kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish samaradorligi ijodiy o'zini namoyon qilishi shaxsning erkinlikka bo'lgan istagi orqali va erkin odamlar jamiyatida amalga oshiriladigan o'zini o'zi anglash ehtiyojlarini aks ettiradi; turli pozitsiyalarni qo'shish va boyitishga hissa qo'shadigan o'quv jarayonida chuqur muloqotni tashkil etadi; ijtimoiy muhit va tashqi dunyoda ham, sub'ektning ichki dunyosida ham yangisini yaratishda uni o'zgartiradi.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish mexanizmining komponentlarini ta'lim olishga qaratilgan uzviy bosqichli jarayonlar orqali amalga oshirishda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmining komponentlarini ochiq mashg'ulotlar o'tish, konferensiya va seminar treninglarda qatnashish yangi muhitni hosil qilish orqali amalga oshirish. Nazariy bilimlar mazmunini tizimlashtirish, olgan bilimlarni amaliyot faoliyatida sinab ko'rish, amaliyotda sinalgan tajribalar individuallashtirilishiga alohida e'tibor berish, sinalgan amaliy bilimlarning kamchiligini aniqlash va qayta amaliy mashg'ulot singari o'tib berish. Mazkur ochiq

mashg'ulotlar o'tkazishda bo'lajak tarbiyachilar maktabgacha ta'lim yangiliklarini, xalqaro baholash mazmuni va ta'lim olish shakliga e'tibor qaratadi. Natijada, bo'lajak tarbiyachilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmining komponentlari ta'lim olish, ochiq mashg'ulotlarni amalga oshirish bosqichlarining texnologik taraqqiyoti hamda maktabgacha ta'lim yo'nalishida o'qitilayotgan fanlar bo'yicha yangiliklarni o'zlashtirish dinamikasi hisobga olinadi, ijodiy yondashuvli faoliyatini individuallashtirishga erishish imkoniyati bo'ladi.

Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda bo'lajak tarbiyachilar uchun didaktik ta'minotning ta'minlanganligi, malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan pedagogic yondoshuvlar va ta'lim tamoyillarini to'g'ri tanlanganligi, bo'lajak tarbiyachilar o'rtasida o'zaro tajriba almashish, seminarlar, konferensiyalar va amaliy mashg'ulotlar orqali malakaviy o'quv amaliyotning samaradorligini oshirish mumkin. Ushbu jihatlar bo'lajak tarbiyachilar uchun o'z kasbiy tajribalarini o'stirish, yangi pedagogik texnikalar va metodlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» farmon.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.y
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston. 2021. –y
4. 2020-yil 5-oktabrdagi «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son Qarori.
5. Ramozonova, B. (2023). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING PROFESSIONAL

COMPETENCES OF FUTURE EDUCATORS DURING THE PROCESS OF QUALIFIED EDUCATIONAL PRACTICE. Science and innovation, 2(B4), 228-230.

6. Sadriddinova, R. B. (2022). FUNDAMENTALS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. Thematics Journal of Education, 7(4).

7. Ramozonova, B. (2025). Malakaviy o 'quv amaliyot jarayonida bo 'lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti. *МАКТАВГАЧА ВА МАКТАВ ТА'LIMI JURNALI*, 3(3).

8. Рамозонова, Б. С., & Абдумуминова, Д. (2023, March). ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ. In E Global Congress (No. 3, pp. 1-5).